



TIJORAT BANKLARNING KREDIT XIZMATLARI DOLZARB MUAMMOLARI

Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi

Termiz davlat universiteti

Moliya kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: j.zarifa.1993@gmail.com

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Mamlakatimizda tijorat bankni transformatsiya qilish sharoitida ko'rsatilayotgan kredit xizmatlari sifatini yaxshilash va risklarni boshqarish barqarorlikning muhim shartidir hisoblanadi. Biroq, amaliyotda banklarning faol operatsiyalari tarkibida kredit qo'yilmalari salmog'ining haddan tashqari yuqoriligi kredit portfelini diversifikatsiyalash darajasining pastligi kuzatishimiz mumkin. Kredit portfelining diversifikatsiyasi darajasining pastligi banklarning tizimli risklarga nisbatan bardoshlilikini pasaytiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida ko'rsatilganidek, faqatgina bozor talablari asosida kreditlash, kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni. 2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 06/20/5992/0581-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.10.2021-y., 06/21/6325/0972-son; 30.12.2021-y., 06/21/42/1224-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son; 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son; 27.04.2023-y., 06/23/62/0232-son.



Tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasining pastligi ular faoliyatidagi kredit riskini samarali boshqarishda imkon bermaydi. Buning sababi shundan iboratki, kredit portfelini diversifikatsiyasini amalga oshirish orqali kredit riskini boshqarishga erishiladi va bu kredit riskini boshqarishning samarali usullaridan biri hisoblanadi.

1. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari umumiy hajmida kreditlarning salmog'ining yuqoriligi.

Quyidagi keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ATB "Agrobank" kredit portfelining tarmoq tarkibiga baho berishimiz mumkin.

1-jadval

ATB "Agrobank" kredit portfelining tarmoq tarkibi, foizda²

Tarmoqlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2024- y.	2025- y.
Sanoat	22,3	23,5	23,7	19,9	24,4	16,1
Qishloq xo'jaligi	42,9	46,9	47,2	51,7	52,1	51,5
Transport va kommunikatsiya	0,5	0,3	0,3	0,1	0,0	0,0
Qurilish	0,7	0,4	0,4	0,2	0,1	0,1
Savdo va umumiy ovqatlanish	1,1	0,4	0,4	0,1	0,0	0,0
Moddiy-texnika ta'minoti	4,0	2,3	2,3	1,1	0,5	0,3
Uy-joy kommunal xo'jaligi	0,9	0,8	0,8	0,6	0,5	0,3

² Jadval muallif tomonidan ATB "Agrobank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.





Boshqa tarmoqlar va sohalar (shu jumladan jismoniy shaxslar)	27,6	25,4	24,9	26,4	22,4	31,9
Jami	100	100	100	100	100	100


1-jadvaldan ko'rinadiki, 2020–2025-yillar davomida bank kredit portfelining tarmoqlar kesimida diversifikatsiyasining pastligi tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, qishloq xo'jaligi tarmog'i bankning jami kredit qo'yilmalarida asosiy qismini tashkil etib kelmoqda. Sanoat tarmog'ining ulushi 16,1 foizdan 24,4 foizgacha nobarqaror bo'lgan bo'lsa, jismoniy shaxslarni o'z ichiga olgan boshqa tarmoq va sohalar ulushi keskin ortib, 2025-yilda 31,9 foizni tashkil etgan. Bu holat bank davlat maqsadli dasturlari doirasida agrar sektorni moliyalashtirishga hamda chakana kreditlashga yuqori darajada bog'lanib qolganligidan dalolat beradi. Kredit portfelining tarkibiy jihatidan salbiy holat hisoblanadi.

2024–2025-yillarda iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari, xususan, transport va kommunikatsiya, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish hamda moddiy-texnika ta'minoti sohalarining kredit portfeldagi ulushi keskin surunkali pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bunday resurslar taqsimotidagi muvozonatning buzilishi, bank faoliyatida risklar konsentratsiyasini oshirib, kredit portfelining diversifikatsiya darajasini cheklaydi.

2020-2025-yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning tarmoq tarkibini ko'rib chiqqanimizda ham eng yuqori salmoq sanoat korxonalariga berilgan kreditlar tashkil etgan edi.

2. Tijorat banklari kreditlarining daromadlilik darajasining past ekanligi va kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini yuqori ekanligi.





1-rasm. Tashqi iqtisodiy faoliyat “Milliy bank”da 1 so‘mlik kreditga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi va kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, foizda³

1-rasmida keltirilgan ma'lumotlardan shuni tahlil qilishimiz mumkinki, TIF “Milliy bank”da 1 so‘mlik kreditning daromadlilik darajasi 2021-yilda 2020-yilga nisbatan pasaygan. Bu esa, kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020-2024-yillarda TIF “Milliy bank”da kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi uning belgilangan me'yoriy darajasidan yuqori bo'lgan.

Jahon banki tavsiyalariga ko'ra, rivojlanayotgan bozorlardagi banklar uchun 1,5 – 2,5 foiz oralig'idagi miqdor eng optimal hisoblanadi. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, TIF “Milliy bank”da tasniflangan kreditlarning oqilona tarkibini shakllanmaganligini ko'rsatadi va bankning kredit portfelini sifatini ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

³ Rasm muallif tomonidan AT “Asakabank”ning Balans hisobotlari va Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.



Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini yuqori bo'lishi tijorat banklarining sof foydasi miqdorining kamayishiga sabab bo'ladi. Bu esa, bankning moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sir vujudga keltiradi.


Jahon amaliyotida yer ham birinchi toifali garov obyekti hisoblanadi. Ammo, yer respublikamizda davlatning mulki hisoblanadi.

3. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiya darajasi past. Bu esa, banklarning qimmatli qog'ozlarini samarali boshqarish imkonini bermaydi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfelini bir vaqtning o'zida bir nechta belgilariga ko'ra diversifikatsiya qilish fond riskini oshib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Bunda, tadqiqotimizda, diversifikatsiyalashning asosiy belgilari sifatida sotib olingan qimmatli qog'ozlarning valyutaviy tarkibi, qimmatli qog'ozlar emitentlarning tarmoq xususiyati va emitentlarning mulk shakliga ko'ra tarkibini nazarda tutilmoqdamiz.

Bir vaqtning o'zida tijorat banklari tomonidan bir nechta valyutalarda yozilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olinishi valyuta kurslarining tebranishi natijasida vujudga keladigan qimmatli qog'ozlarga qilingan investsiyalarning real qiymatini pasayish xavfini oldini olishga imkon beradi.

Respublikamiz tijorat banklarida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning jami aktivlarga nisbatan darajasining past ekanligi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazish amaliyotini takomillashmaganligidan dalolat beradi (3.2-rasm).



2-rasm. ATB "Agrobank", AT "Asakabank", AT "Mikrokreditbank" va TIF "Milliy bank"larda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i, foizda⁴

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, ATB "Agrobank", AT "Asakabank" AT "Mikrokreditbank" va TIF "Milliy bank"lar tahlil qilingan davr mobaynida ya'ni, 2020–2024–yillar davomida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning jami aktivlar hajmidagi ulushi juda past va beqaror bo'lgan. Bu esa, mazkur banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazish amaliyotini takomillashmaganligidan dalolat beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar, tijorat banklarining kreditlash amaliyoti yuzasidan o'tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirdik:

1. Kredit portfelining asosiy qismi asosan bir sohaga yo'naltirilganligi, xususan, bank aktivlarining 50 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligini moliyalashtirishga hamda chakana kreditlashga yo'naltirilishi, iqtisodiyotning

⁴ ATB "Agrobank", AT "Asakabank", AT "Mikrokreditbank" va TIF "Milliy bank" Balans hisobotlari va Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.



boshqa asosiy sohalari transport, qurilish, savdo ulushining keskin pasayib ketishi portfelning diversifikatsiya darajasini pasayishiga va bu holat risk darajasini oshiradi.

2. Bankda 1 so'mlik kreditga to'g'ri keladigan daromadlilik darajasining pasayishi, shu bilan birga kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari yuqoriligi kuzatilgan. Xususan, TIF "Milliy bank" shakllantirilgan zaxira ajratmalari Jahon banki tomonidan rivojlanayotgan bozorlar uchun belgilangan me'yordan 1,5–2,5 foizdan yuqori bo'lishi kuzatilgan. Ushbu holat kredit portfeli sifatining yomonlashuvini bilan birga, banklarning sof foydasini pasayishi uning natijasida banklarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Bank risklarini pasaytirish va diversifikatsiyasini amalga oshirishning asosiy instrumentlardan biri hisoblangan qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish O'zbekiston tijorat banklarda yetarlicha takomillashmagan. Yirik banklarning qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar darajasi past va beqaror tendensiyaga ega bo'lgan.

Umumiy xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, bank tizimini yangilash sharoitida kredit xizmatlari barqarorligini ta'minlash uchun aktivlarni joylashtirishdagi qat'iyligidan voz kechish, aktivlar tasnifining oqilona tarkibiy tuzilmasini shakllantirish hamda qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion operatsiyalarni diversifikatsiyalash obyektiv zaruriyat hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni. 2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 06/20/5992/0581-son;



Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.10.2021-y., 06/21/6325/0972-son;
30.12.2021-y., 06/21/42/1224-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son;
10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son; 27.04.2023-y., 06/23/62/0232-son.

2. ATB «Agrobank». Yillik hisobotlar. 2020, 2021, 2022, 2023, 2024,
2025. //agrobank.uz

3. AT «Asakabank». Yillik hisobotlar. 2020, 2021, 2022, 2023, 2024, 2025.
//www.asakabank.uz

4. TIF «Milliy bank». Yillik hisobotlar. 2020, 2021, 2022, 2023, 2024,
2025. //nbu.uz

5. AT «Mikrokreditbank». Yillik hisobotlar. 2020, 2021, 2022, 2023, 2024,
2025. //mkbank.uz